



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOVAR BOZORIDA TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI

**Pardayev Sherzod**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

ORCID: 0000-0002-5289-6326

[sherzodpardayev0782@gmail.com](mailto:sherzodpardayev0782@gmail.com)

**Sayfiddinov Jamshidbek**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

ORCID: 0009-0001-4480-6212

[sayfiddinovjamshid07@gmail.com](mailto:sayfiddinovjamshid07@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi tovar bozorida tovar-moddiy resurslar harakatining 2015–2024 yillar davomidagi holati, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va tashqi savdo tarkibi qiyosiy hamda statistik tahlil usullari orqali yoritildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi tovar bozorida tarkibiy o'zgarishlarni baholash, logistika va import qaramligi bilan bog'liq mavjud muammolarni aniqlash hamda sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'rganilayotgan davrda mamlakat YaIM hajmi 72.6% ga, tashqi savdo aylanmasi esa 177% ga oshgan. Shuningdek, raqamli savdo hajmi yillik o'rtacha 40.2% ga o'sib, tovar bozorining eng istiqbolli segmentiga aylandi. Shu bilan birga, eksport tarkibida xom ashyo ulushining yuqoriligi, logistika xarajatlarining kattaligi va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy disparitet (Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston o'rtasida 6.3 baravarlik farq) kabi tizimli muammolar saqlanib qoldi. Tadqiqot xulosasida import o'rnini bosish siyosatini takomillashtirish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va mintaqaviy tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** tovar bozori, tovar-moddiy resurslar, tashqi savdo, eksport, import, savdo aylanmasi, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, iqtisodiy o'sish, O'zbekiston.

## ОСТОЯНИЕ И ТЕНДЕНЦИИ ДВИЖЕНИЯ ТОВАРНО-МАТЕРИАЛЬНЫХ РЕСУРСОВ НА ТОВАРНОМ РЫНКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Пардаев Шерзод**

Самаркандский филиал Ташкентский государственный

экономический университет

**Сайфиддинов Жамшидбек**

Самаркандский филиал Ташкентский государственный

экономический университет

**Аннотация.** В данной статье с помощью методов сравнительного и статистического анализа исследуется состояние движения товарно-материальных ресурсов на товарном рынке Республики Узбекистан за 2015–2024 годы, динамика макроэкономических показателей и структура внешней торговли. Основная цель исследования – оценка структурных изменений на товарном рынке, выявление существующих проблем, связанных с логистикой и импортозависимостью, а также

разработка научно обоснованных рекомендаций по развитию сектора. Результаты анализа показывают, что за рассматриваемый период ВВП страны вырос на 72,6%, а внешнеторговый оборот – на 177%. Кроме того, объем цифровой торговли увеличился в среднем на 40,2% в год, став наиболее перспективным сегментом товарного рынка. При этом сохраняются системные проблемы, такие как высокая доля сырья в структуре экспорта, высокие логистические издержки и экономическое неравенство между регионами (6,3-кратная разница между городом Ташкентом и Каракалпакстаном). Результаты исследования легли в основу практических предложений, направленных на совершенствование импортозамещающей политики, развитие логистической инфраструктуры и сокращение регионального неравенства.

**Ключевые слова:** товарный рынок, товарно-материальные ресурсы, внешняя торговля, экспорт, импорт, товарооборот, сравнительный анализ, статистический анализ, экономический рост, Узбекистан.

## STATE AND TRENDS OF THE MOVEMENT OF INVENTORY RESOURCES IN THE COMMODITY MARKET OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Pardayev Sherzod**

*Samarkand Branch of Tashkent State University of Economics*

**Sayfiddinov Jamshidbek**

*Samarkand Branch of Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** This article examines the state of the movement of commodity and material resources in the commodity market of the Republic of Uzbekistan for 2015–2024, the dynamics of macroeconomic indicators and the composition of foreign trade using comparative and statistical analysis methods. The main objective of the study is to assess structural changes in the commodity market, identify existing problems related to logistics and import dependence, and develop scientifically based recommendations for the development of the sector. The results of the analysis show that during the period under study, the country's GDP increased by 72.6%, and foreign trade turnover by 177%. In addition, the volume of digital trade increased by an average annual rate of 40.2%, becoming the most promising segment of the commodity market. At the same time, systemic problems such as the high share of raw materials in the export structure, high logistics costs, and economic disparity between regions (a 6.3-fold difference between the city of Tashkent and Karakalpakstan) remained. The research findings developed practical proposals aimed at improving import substitution policies, developing logistics infrastructure, and reducing regional inequality.

**Keywords:** commodity market, commodity-material resources, foreign trade, export, import, trade, comparative analysis, statistical analysis, economic truth, Uzbekistan.

### **Kirish.**

Tovar bozori har qanday bozor iqtisodiyotining asosiy tizim bo'g'ini bo'lib, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari o'rtasida manfaatlarni muvofiqlashtirish, resurslarni samarali taqsimlash va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasining 2017–2022 yillarda amalga oshirilgan izchil iqtisodiy islohot siyosati va keyinchalik yangi taraqqiyot strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2017) doirasida tovar bozorida tub o'zgarishlar ro'y berdi: bozorni erkinlashtirish, eksport salohiyatini kengaytirish, raqamli savdoni rivojlantirish va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish kabi muhim yo'nalishlar amalga oshirildi.

2015–2024 yillar davomida O'zbekiston iqtisodiyoti tarkibiy o'zgarishlarga duch keldi. Xususan, milliy valyutaning 2017 yildagi erkinlashtirilishi natijasida eksport-import operatsiyalari sezilarli darajada kengaydi; xususiyl sektori ulushi oshdi; chet el investitsiyalari

jalb qilish hajmi keskin ko'paydi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2017). Ushbu jarayonlar bevosita tovar-moddiy resurslar harakatiga va tovar bozorining rivojlanish dinamikasiga ta'sir ko'rsatdi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining YaIM hajmi 115 mlrd. AQSH dollaridan oshib, MDH davlatlari ichida Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi o'rinni egallaydi. Tashqi savdo aylanmasi 65.9 mlrd. dollarga yetgan bo'lib, bu 2015 yilga nisbatan 2.77 baravar ko'pdir (Milliy statistika qo'mitasi, 2025). Shu bilan birga, tovar bozorida bir qator muammolar savdo defitsiti, ba'zi mahsulotlar bo'yicha import qaramlik, mahalliy ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining rivojlangan mamlakatlar darajasidan sezilarli orqada qolishi va logistika xarajatlarining yuqoriligi o'z yechimini kutmoqda.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi tovar bozorida tovar-moddiy resurslar harakatini tizimli, qiyosiy va statistik usullar yordamida tahlil qilishga, mavjud muammo va imkoniyatlarni aniqlashga hamda kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Tovar bozori va tovar-moddiy resurslar harakatiga oid nazariy tadqiqotlar keng ilmiy asosga ega. Kotler va Armstrong (2019) tovar bozorini xaridorlar, sotuvchilar va mahsulotlar o'rtasidagi munosabatlarning tashkiliy tizimi sifatida ta'riflab, uning asosiy funksiyalarini resurs allokatatsiyasi, narx shakllanishi va iqtisodiy muvozanat ta'minlashi deb belgilaydi. Mankiw (2021) esa tovar bozori samaradorligini baholashda taklif va talab elastikligi, bozor muvozanati va tashqi effektlar ko'rsatkichlaridan foydalanishni tavsiya etadi.

Xalqaro savdo nazariyasi sohasida Krugman va Obstfeld (2022) ning "International Economics: Theory and Policy" asari savdoning resurslar allokatatsiyasiga, iqtisodiy o'sish va iste'mol farovonligiga ta'sirini mukammal yoritib beradi. Heckscher-Ohlin modeli asosida o'tkazilgan empirik tadqiqotlar O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun mehnat ko'p talab qiladigan va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga ixtisoslashish ustunliklarini ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga oid maxsus tadqiqotlar orasida Zhukov va boshqalar (2021) ning MDH makonida iqtisodiy islohot va savdo liberalizatsiyasi mavzuidagi monografiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning xulosasiga ko'ra, 2017 yilgi valyuta liberalizatsiyasi O'zbekistonda eksport salohiyatini sezilarli oshirgan, biroq import raqobatchiligini ham kuchaytirgan.

O'zbekistonda tovar bozori va tashqi savdo masalalariga bag'ishlangan mahalliy tadqiqotlar orasida B. Karimov va boshqalar (2022) ishlarini alohida ta'kidlash lozim. B. Karimov O'zbekiston tovar bozorining raqobatbardoshlik omillarini tahlil qilib, milliy brendlarni rivojlantirish zaruriyatini asoslab bersa, X. Umarov va A. Razzaqovlar (2023) tashqi savdo geopolitikasini o'rgangan. Sh. Toshmatov esa raqamli iqtisodiyot sharoitida onlayn savdoning rivojlanish perspektivalarini tadqiq etgan.

Jahon banki va IMF (2023) ekspertlari O'zbekiston iqtisodiyotini baholagan holda, savdo ochiqligining (trade openness) o'sishi iqtisodiy samaradorlikni oshirgan, biroq chet el to'lovlar taqchilligi risklarini ham kuchaytirganini qayd etgan. UNCTAD (2023) esa O'zbekistonda elektron savdoning rivojlanishi uchun qulay asos shakllanayotganini, lekin raqamli infratuzilma va logistika tizimlarini yanada takomillashtirish zarurligini ta'kidlagan.

### **Tadqiqotlar metodologiyasi.**

Tadqiqot tovar bozorida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni chuqur o'rganish maqsadida miqdoriy va sifatli tahlil usullarini birlashtirgan aralash metodologiyaga (mixed-methods approach) asoslanadi. Asosiy ma'lumotlar bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, shuningdek, Jahon banki, XVF (World Economic Outlook) hamda UNCTAD kabi xalqaro tashkilotlarning 2015–2024 yillardagi rasmiy statistik hisobotlari tanlab olindi. Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda quyidagi usullardan foydalanildi:

— Zanjirli va bazis qiyosiy tahlil, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, xususan, YaIM, chakana va ulgurji savdo aylanmasining 10 yillik dinamikasini baholash uchun qo'llanildi.

— Tarkibiy tahlil (structural analysis), tashqi savdo, jumladan, eksport va import tarkibidagi tovar guruhlari ulushini (masalan, oltin va mashina-uskunalar) hamda savdo sheriklari geografiasidagi o'zgarishlarni aniqlashda foydalanildi.

— Trenddan og'ish tahlili (deviation analysis) va deskriptiv statistika, pandemiya davridagi (2020-yil) iqtisodiy sekinlashuv va undan keyingi tiklanish jarayonlarini, shuningdek hududiy disparitet ko'rsatkichlarini hisoblashda qo'llanildi. Tadqiqot yakunida tovar bozorining joriy holatini majmuaviy baholash uchun strategik rejalashtirish vositasi bo'lgan SWOT-tahlil qo'llanildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasining 2015–2024 yillardagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili quyidagi asosiy tendensiyalarni ochib beradi. Mamlakat YaIM hajmi 2015 yilda 66.7 mlrd. dollarni tashkil etib, 2024 yilda 115 mlrd. dollarga yetdi — bu 72.6% nominal o'sishni bildiradi (1-jadval). Real hisoblarda o'rtacha yillik o'sish 5.8% ni tashkil etdi. 2020 yili COVID-19 pandemiyasi ta'sirida YaIM o'sishi 1.9% gacha sekinlashdi, lekin 2021–2024 yillarda barqaror ravishda 5.7–7.4% oralig'ida saqlanib qoldi (Milliy statistika qo'mitasi, 2025).

### 1-Jadval

#### O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy va savdo ko'rsatkichlari (2015–2024)

Ko'rsatkich	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
YaIM (mlrd. AQSH doll.)	66.7	67.8	60.5	50.5	57.9	60.4	69.2	80.4	90.0	115.0
YaIM o'sishi (%)	8.0	7.8	4.5	5.4	5.9	1.9	7.4	5.7	6.0	6.5
Tashqi savdo aylanmasi (mlrd. \$)	23.8	22.9	25.0	34.6	41.9	38.1	52.6	62.6	63.6	65.9
Eksport (mlrd. \$)	12.3	11.5	14.1	15.0	18.5	15.1	19.5	21.6	23.5	26.9
Import (mlrd. \$)	11.5	11.4	10.9	19.6	23.4	23.0	33.1	41.0	40.1	39.0
Savdo balansi (mlrd. \$)	0.8	0.1	3.2	-4.6	-4.9	-7.9	-13.6	-19.4	-16.6	-12.1
Inflyatsiya (%)	5.6	8.8	14.4	17.5	15.2	11.1	10.8	12.3	9.8	9.8

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Jahon banki WDI, XVF World Economic Outlook 2024.

Tashqi savdo aylanmasi 2015 yildagi 23.8 mlrd. dollardan 2024 yilda 65.9 mlrd. dollarga yetib, 177% o'sdi. 2018–2019 yillarda keskin sakrash kuzatilgan, bu esa valyuta liberalizatsiyasi va savdo to'siqlarining pasayishi bilan bog'liq. Savdo balansi doimiy ravishda manfiy bo'lgan (import ustunligi), ammo 2022–2024 yillarda taqchillik sezilarli qisqarmoqda: -19.4 mlrd.dan -12.1 mlrd. dollarga kamaygani bu sohada ijobiy siljishlar borligini ko'rsatadi.

Inflyatsiya ko'rsatkichi 2017–2018 yillarda 14.4–17.5% gacha ko'tarilgan (valyuta liberalizatsiyasi ta'siri), keyinchalik 2024 yilga kelib 9.8% gacha tushdi. Bu iste'mol narxlari barqarorligiga intilish davom etayotganini bildiradi.

Ichki tovar bozori: chakana va ulgurji savdo dinamikasi. Ichki tovar bozorida chakana savdo tovar aylanmasi 2015–2024 yillarda 1149% — ya'ni 12 baravardan ziyod — o'sdi. Bu raqam nominal o'sishni aks ettirsa-da, inflyatsiyani hisobga olgan holda ham real hisoblarda yiliga taxminan 8–10% o'sish qayd etilgan. Ulgurji savdo esa 1448% o'sdi — bu chakana

savdodan ham tezroq sur'at bo'lib, ishlab chiqarishning kengayishi va distribyutsiya tarmoqlarining rivojlanishi bilan izohlanadi (2-jadval).


2-jadval

**Ichki tovar bozorining asosiy ko'rsatkichlari (2015–2024)**

Savdo turi	2015	2017	2019	2021	2022	2023	2024	O'sish (2015-2024)
Chakana savdo (trln. so'm)	30.4	48.7	116.2	195.4	249.8	310.5	380.0	+1149%
Ulgurji savdo (trln. so'm)	22.1	38.6	95.3	162.7	208.4	265.2	320.0	+1448%
Bozor savdosi (trln. so'm)	12.8	19.4	48.7	79.5	98.6	119.3	142.0	+1009%
Onlayn savdo (mlrd. so'm)	320	980	4200	11500	16200	22800	32000	+9900%
Jonboshiga chakana savdo (ming so'm)	997	1495	3476	5742	7189	8720	10500	+953%

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi yillik statistik to'plamlari (2015–2024).

Jon boshiga chakana savdo hajmi 2015 yildagi 997 ming so'mdan 2024 yilda 10 500 ming so'mga yetdi. Bu aholi turmush darajasining oshishi va iste'mol faolligining kuchayishini bildiradi. Biroq hududlar bo'yicha katta farqlar saqlanib qolmoqda: Toshkent shahrida jon boshiga savdo hajmi respublika o'rtachasidan 2.6 baravar yuqori.



**1-rasm. Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi (trln. so'm, 2015–2024 yillar)**

**Manba:** Milliy statistika qo'mitasi.

Tashqi savdo tarkibi va eksport dinamikasi. Eksport tarkibining tahlili O'zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlarni yaqqol namoyon etadi (3-jadval). 2015 yilda paxta tolasi eksportining yalpi eksportdagi ulushi 8.9% ni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 2.6% gacha kamaydi. Bu holat paxta «xom ashyo» eksportidan qo'shimcha qiymat yaratish yo'lida siljish bo'layotganini anglatadi ya'ni paxta o'rniga gazlama, tayyor trikotaj va kiyim-kechak eksporti ortmoqda (DBQ, 2024).

Oltin eksporti 2019–2022 yillarda keskin oshib, umumiy eksportning 36–40% ini tashkil etgan. Bu holat bir tomondan O'zbekiston iqtisodiyotining qimmatbaho metallarga haddan tashqari bog'liqligini ko'rsatsa («gold dependency»), ikkinchi tomondan yirik zaharalar hajmining oshishidan dalolat beradi. 2024 yilga kelib oltin ulushi 27.9% ga tushishi importersifikatsiya siyosatining natijasi bo'lmoqda (IMF, 2024).

Mashinasozlik mahsulotlari eksportining ulushi 2015 yildagi 6.5% dan 2024 yilda 8.2% ga ko'tarildi. Mutlaq miqdorda esa bu 0.8 mlrd. dollardan 2.2 mlrd. dollarga o'sish demakdir — ya'ni 2.75 baravar. Bu ko'rsatkich hali kam bo'lib ko'rinsa-da, sanoatni diversifikatsiya qilish va qayta ishlash sanoatini kengaytirish bo'yicha olib borilayotgan siyosat o'z samarasini bera boshlaganini ko'rsatadi (International Trade Centre, 2024).

## 3-jadval

O'zbekiston Respublikasi eksport tarkibi tovar guruhlarini bo'yicha  
(2015–2024, mlrd. AQSH dollari)

Mahsulot guruhi	2015 mlrd.\$	2015 %	2019 mlrd.\$	2019 %	2022 mlrd.\$	2022 %	2024 mlrd.\$	2024 %
Oltin va qimmatbaho metallar	2.1	17.1	5.1	27.5	7.8	36.1	7.5	27.9
Energiya resurslari	2.3	18.7	2.4	13.0	2.8	13.0	3.5	13.0
Kimyoviy mahsulotlar	0.9	7.3	1.1	5.9	1.3	6.0	1.4	5.2
Mashinasozlik mahsulotlari	0.8	6.5	1.2	6.5	1.5	6.9	2.2	8.2
mahsulotlari	1.8	14.6	2.6	14.1	3.2	14.8	4.2	15.6
Paxta tolasi va gazlama	1.1	8.9	0.8	4.3	0.6	2.8	0.7	2.6
Rangli metallar	1.0	8.1	1.3	7.0	1.4	6.5	1.8	6.7
Xizmatlar	0.9	7.3	1.9	10.3	2.1	9.7	3.2	11.9
Boshqalar	1.4	11.5	1.1	5.9	0.9	4.2	2.3	8.9

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, ITC TradeMap, Milliy statistika qo'mitasi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti barqaror o'sish ko'rsatdi: 1.8 mlrd. dollardan 4.2 mlrd. dollarga. Mevalar, sabzavotlar, uzum va o'rik kabi mahsulotlar bo'yicha Rossiya, Qozog'iston va GCC mamlakatlari bozorlari faol o'zlashtirilmoqda.

## 4-jadval

O'zbekiston Respublikasi import tarkibi tovar guruhlarini bo'yicha  
(2015–2024, mlrd. AQSH dollari)

Import guruhi	2015	%	2019	%	2022	%	2024	%
Mashina va uskunalar	3.6	31.3	6.8	29.1	14.2	34.6	13.5	34.6
Kimyoviy mahsulotlar	1.7	14.8	3.5	15.0	6.3	15.4	4.7	12.0
Metall mahsulotlar	1.2	10.4	2.8	12.0	4.3	10.5	4.0	10.3
Oziq-ovqat mahsulotlari	0.9	7.8	2.1	9.0	3.3	8.0	3.1	7.9
Energiya va yoqilg'i	0.8	7.0	1.9	8.1	3.1	7.6	2.8	7.2
To'qimachilik mahsulotlari	0.6	5.2	1.4	6.0	2.2	5.4	2.0	5.1
Farmatsevtika	0.4	3.5	0.9	3.9	1.5	3.7	1.6	4.1
Boshqalar	2.3	20.0	4.0	17.1	6.1	14.9	7.3	18.7

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, UNCTAD Statistics 2024.

Import tarkibi va importga qaramlikning tahlili. O'zbekiston importi 2015–2022 yillarda sezilarli ravishda oshib (11.5 mlrd.dan 41.0 mlrd. dollarga), keyinchalik 2024 yilda 39.0 mlrd. dollarga tushdi. Import tarkibida mashina va uskunalar yetakchilik qilmoqda 34.6% ulush bilan (4-jadval). Bu ko'rsatkich sanoatni modernizatsiya qilish jarayonini aks ettiradi, chunki mamlakat ichkarisida hozircha yetarli ishlab chiqarish imkoniyati yo'q bo'lgan zamonaviy uskunalar, transport vositalari va texnologik liniyalar import qilinmoqda (O'zR Markaziy banki, 2024).

Kimyoviy mahsulotlar importi iqtisodiyotning barcha sohalari uchun zarur bo'lgan xom ashyo, o'g'it va farmatsevtika mahsulotlarini o'z ichiga oladi. Bu sohadagi import kamayishi

uchun mahalliy kimyo sanoatini rivojlantirish zarur. Oziq-ovqat mahsulotlari importi ham diqqatga sazovor: 2024 yilda 3.1 mlrd. dollarni tashkil etdi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Savdo sheriklar tahlili: geografik diversifikatsiya. Savdo sheriklarining tahlili O'zbekistonning tashqi savdosida ikki asosiy tendensiyani ko'rsatadi: Xitoyning o'rnini mustahkamlashi va Rossiyaning nisbiy ulushini barqaror saqlab turishi (5-jadval).

5-jadval

**O'zbekistonning asosiy savdo sheriklari (tashqi savdo aylanmasida ulushi, %)**

Mamlakat	2015 ulushi %	2019 ulushi %	2022 ulushi %	2024 ulushi %	Tendensiya
Rossiya	24.1	18.2	22.4	21.5	Barqaror (↔)
Xitoy	17.3	22.1	25.6	26.8	O'sish (↑)
Qozog'iston	8.9	9.4	8.1	7.4	Pasayish (↓)
Turkiya	5.2	6.8	7.2	7.1	Barqaror o'sish (↑)
Koreya Respublikasi	4.1	4.7	4.5	4.8	Barqaror (↔)
Germaniya	3.8	3.2	2.8	3.0	Pasayish (↓)
AQSh	2.9	3.4	3.8	4.1	O'sish (↑)
BAA	2.3	3.6	4.1	4.5	Jadal o'sish (↑↑)
Afg'oniston	3.1	4.2	3.6	3.8	O'sish (↑)
Boshqalar	28.3	24.4	17.9	17.0	Pasayish (↓)

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tashqi savdo to'plamlari (2015–2024).

Xitoyning ulushi 2015 yildagi 17.3% dan 2024 yilda 26.8% ga ko'tarilishi — eng muhim tendensiya. Bu ko'rsatkich O'zbekistonning Belt and Road Initiative (Ko'chmanchi yo'l) tashabbusi doirasida Xitoy bilan iqtisodiy hamkorligini chuqurlashtirayotganini bildiradi (Asian Development Bank, 2023). BAA (Birlashgan Arab Amirliklari) bilan savdo 2.3% dan 4.5% ga o'sdi — bu markaziy Osiyo bozoriga kirib bormoqchi bo'lgan global savdo markazlarining O'zbekistonga e'tiborini oshirayotganidan dalolat beradi.

Qozog'iston bilan savdo nisbiy pasayishi (8.9% → 7.4%) ikki tomonlama: bir tomondan O'zbekiston boshqa bozorlarga yo'nalayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan Qozog'iston ham o'z mahsulotlari bilan O'zbekiston bozorida raqobatni kuchaytirmoqda. Rossiya bilan savdo Ukraina urushiga qaramay 21.5% ulushini saqlab qoldi, bu iqtisodiy aloqalarning mustahkamligi va zaruriyligi bilan izohlanadi.

Mintaqalar bo'yicha tovar bozori tahlili. Tovar bozorini mintaqalar bo'yicha tahlil qilish respublika ichidagi iqtisodiy disparitet muammosini yanada aniqroq ko'rsatadi (6-jadval). 14 ta mintaqada orasida Toshkent shahri yalpi chakana tovar aylanmasining 23.5% ini ta'minlab, mutlaq yetakchilik qilmoqda. Toshkent viloyati esa 11.1% ulush bilan ikkinchi o'rinda turadi.

Jon boshiga chakana savdo hajmida eng katta farq Toshkent shahri (27 340 ming so'm) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (4 320 ming so'm) o'rtasida kuzatiladi — 6.3 baravar farq. Bu tafovutning katta bo'lishi bir qator tizimli muammolarga ishora qiladi: logistika infratuzilmasining zaifligi, aholi daromad darajasining past bo'lishi, kichik biznesning rivojlanmasligi va moliyaviy xizmatlar qamrovining chegaraliligi.

## 6-jadval

## O'zbekiston Respublikasi viloyatlari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi (2023 yil)


Viloyat/Shahar	Chakana savdo hajmi 2023 (mlrd. so'm)	YaIMdagi ulushi (%)	O'sish sur'ati 2022/2023 (%)	Aholi jon boshiga (ming so'm)
Toshkent shahri	89 420	23.5	14.2	27 340
Toshkent viloyati	42 180	11.1	11.8	15 620
Samarqand viloyati	31 650	8.3	12.4	9 870
Farg'ona viloyati	28 340	7.5	10.9	8 540
Qashqadaryo viloyati	24 120	6.3	13.1	8 210
Andijon viloyati	22 860	6.0	11.5	10 140
Buxoro viloyati	19 740	5.2	12.8	14 360
Namangan viloyati	18 530	4.9	10.3	7 810
Xorazm viloyati	14 280	3.8	11.2	8 230
Surxondaryo viloyati	12 640	3.3	9.8	6 540
Jizzax viloyati	9 840	2.6	10.5	8 680
Sirdaryo viloyati	8 920	2.3	11.9	10 870
Navoiy viloyati	8 540	2.2	13.6	12 430
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 640	2.0	9.1	4 320

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hududiy statistika to'plami 2023.

O'sish sur'atlari bo'yicha esa Navoiy viloyati (13.6%), Toshkent shahri (14.2%) va Qashqadaryo viloyati (13.1%) yetakchilik qilmoqda. Ularning o'sishi sanoat investitsiyalari, yangi logistika markazlari qurilishi va hududiy rivojlantirish dasturlari bilan bog'liq.

COVID-19 pandemiyasining tovar bozoriga ta'siri. 2020-yildagi COVID-19 pandemiyasi O'zbekiston tovar bozorida bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. YaIM o'sishi 5.9% dan 1.9% gacha (3.0 f.p.) sekinlashdi — bu mustaqillik yillarida eng past ko'rsatkich hisoblanadi. Tashqi savdo aylanmasi 41.9 mlrd. dollardan 38.1 mlrd. dollarga (-9%) kamaydi; eksport esa 18.5 mlrd. dollardan 15.1 mlrd. dollarga (-18.4%) tushdi (World Bank, 2021).

Chakana savdoda katta o'zgarishlar kuzatildi: an'anaviy bozorlar va do'konlardagi aylanma kamaydi, biroq onlayn savdo portlama (boom) ko'rsatdi. 2020-yili onlayn savdo 4 200 mlrd. so'mdan 8 100 mlrd. so'mga — ya'ni 92.8% ga — oshdi. Bu holat pandemiyaning raqamli transformatsiyani tezlashtiruvchi omil sifatida ishlagonini ko'rsatadi.



## 2-rasm. Viloyatlar bo'yicha chakana savdo ulushi (% , 2023).

**Manba:** Milliy statistika qo'mitasi.

Hukumat pandemiyadagi oqibatlarni yumshatish uchun bir qator choralar ko'rdi: soliq imtiyozlari, kreditlar bo'yicha kanikul, import bojlarining vaqtinchalik bekor qilinishi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash dasturlari. Natijada 2021-yildan boshlab iqtisodiyot jadal tiklanish yo'liga kirdi va 2021-yilda YaIM o'sishi 7.4% ga yetdi.

Raqamli savdo va e-commerce rivojlanishi. Raqamli savdo O'zbekiston tovar bozorida eng tez rivojlanayotgan segment hisoblanadi (7-jadval). 2019–2024-yillarda onlayn savdo hajmi 4 200 mlrd. so'mdan 32 000 mlrd. so'mga ya'ni 7.6 marta oshdi. Yillik o'rtacha o'sish sur'ati (CAGR) 40.2% ni tashkil etdi (O'zbekiston Raqamli iqtisodiyot agentligi, 2024).

7-jadval

**O'zbekistonda raqamli savdo va onlayn iqtisodiyot ko'rsatkichlari (2019–2024)**

Ko'rsatkich	2019	2020	2021	2022	2023	2024	CAGR %
Onlayn savdo hajmi (mlrd. so'm)	4 200	8 100	11 500	16 200	22 800	32 000	+40.2%
Jami savdodagi ulushi (%)	1.8	2.9	3.2	3.6	4.1	4.9	+172%
Faol onlayn xaridorlar (mln. kishi)	1.2	2.1	3.4	5.6	8.2	11.4	+57.2%
O'rtacha chek miqdori (ming so'm)	87	96	105	115	128	143	+64.4%
Mobil savdo ulushi (%)	34	48	59	68	73	79	+132%
(trln. so'm)	12.4	24.6	48.2	78.4	112.6	158.3	+176.9%

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Uzcard va Humo to'lov tizimlari hisobotlari; O'zbekiston raqamli iqtisodiyoti agentligi.

Mobil savdo ulushining 34% dan 79% gacha o'sishi iqtisodiyotning smartfon va mobil internet asosida raqamli o'tishini ko'rsatadi. Elektron to'lovlar tizimi ham keng qamrovga erishdi: 2024-yilda elektron to'lovlar hajmi 158.3 trln. so'mga yetib, 2019-yilga nisbatan 12.8 baravar oshdi. Bu ko'rsatkichlar naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirmoqda.

Faol onlayn xaridorlar soni 1.2 mln kishidan 11.4 mln kishiga oshdi. Bu O'zbekiston aholisining 30% dan ortig'i onlayn xarid qilishga o'tganini bildiradi. Bunda asosiy onlayn platformalar Uzum Market, Korzinka.uz, Express24.uz va xalqaro platformalarning (AliExpress, Ozon) mahalliy versiyalari hisoblanadi.

Xalqaro qiyosiy tahlil. O'zbekistoni qo'shni va hamkorlikdagi davlatlar bilan solishtirish bir necha muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi (8-jadval). O'zbekiston 2015–2024-yillarda 72.6% YaIM o'sishi bilan O'rta Osiyo mintaqasida birinchi o'rinda turadi. Qazog'iston bu ko'rsatkich bo'yicha ikkinchi (45.2%), Turkiya esa uchinchi (38.9%) o'rinda.

Import o'sishi bo'yicha O'zbekiston 239.1% bilan barcha taqqoslangan davlatlardan yuqori. Bu bir tomondan modernizatsiya va rivojlanish uchun zarur resurslar, texnologiyalar va uskunalar jalb qilinayotganini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan import qaram bo'lish (import dependency) riskini ham anglatadi. Xitoy va Hindistondagi savdo balansi ijobiy ko'rinishi (tovar eksportining import ustida ustunligi) O'zbekiston uchun erishilishi kerak bo'lgan maqsad hisoblanadi.

Savdo balansi/YaIM nisbati bo'yicha O'zbekistondagi - 10.5% ko'rsatkich hali yuqori bo'lib qolmoqda, lekin 2022-yildagi eng yuqori - 24.1% dan sezilarli pasaygan. Bu ko'rsatkichni 0 ga yaqinlashtirishning maqsadga muvofiq ekanligi iqtisodiy barqarorlik uchun zarur.

## 8-jadval

## O'zbekiston va qo'shni/hamkorlikdagi mamlakatlarning asosiy ko'rsatkichlari qiyosiy tahlili (2015–2024)

Mamlakat	YaIM o'sishi 2015-2024 (%)	Eksport o'sishi (%)	Import o'sishi (%)	Savdo balansi/YaIM (%)
<b>O'zbekiston</b>	<b>72.6%</b>	<b>118.7%</b>	<b>239.1%</b>	<b>-10.5%</b>
Qozog'iston	45.2%	38.4%	42.1%	+4.2%
Rossiya	12.8%	28.6%	15.4%	+6.8%
Turkiya	38.9%	86.4%	78.2%	-4.6%
Xitoy	89.4%	115.2%	98.6%	+1.8%
Hindiston	95.6%	134.2%	128.4%	-3.2%
O'rta Osiyo o'rtachasi	52.4%	74.3%	89.6%	-5.1%

*Manba: Jahon banki WDI 2024, XVF World Economic Outlook 2024, UNCTAD Statistics 2024.*

O'zbekistonning Global Competitiveness Index bo'yicha 2019-yildagi 95-o'rinda (141 davlat ichida) turishi va keyingi yillarda (2023-yil — 82-o'rin) o'sishi sodir bo'ldi. Tovar va xizmatlar bozori samaradorligi bo'yicha eng katta yutuqlar qayd etilgan (World Economic Forum, 2023).

## 9-jadval

## O'zbekiston tovar bozorining SWOT-tahlili

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
Barqaror yuqori YaIM o'sish sur'atlari (5.7–7.4%); Xududiy joylashuv — O'rta Osiyo transit markazi; Katta ichki bozor (36 mln. aholi); Mineral va qishloq xo'jaligi resurslarining boy zaxirasi; Yosh mehnat resurslari (o'rtacha yosh — 29 yil); Jadal rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyot.	Savdo balansidagi doimiy taqchillik; Eksportda xom ashyo (oltin) ulushining haddan ortiq yuqoriligi; Logistika infratuzilmasining zaif rivojlanganligi; Hududlar o'rtasidagi katta iqtisodiy disparitet; Chet el valyutasiga nisbatan milliy valyutaning inflyatsion zaifligi; Mahalliy sanoat raqobatbardoshligining pastligi.
Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
Xitoy-Yevropa tranzit yo'nalishidagi muhim o'rin; GCC va Janubiy Osiyo bozorlariga yo'nalish kengaytirilishi; Qayta ishlash sanoati va qo'shilgan qiymat eksportini oshirish; Turizm va xizmatlar eksportini kengaytirish; Raqamli savdo infratuzilmasini rivojlantirish; rar eksport nomenklaturasini kengaytirish imkoniyati.	Geopolitik beqarorlik (Rossiya-Ukraina urushi, AfPoK muammolari); Global ta'minot zanjirlarining buzilishi; Xitoyning raqobat bosimi; Xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi; Iqlim o'zgarishining agrar sektori va suv resurslariga ta'siri; Global retsessiya xavfi va savdo siyosatining o'zgarishi.

SWOT-tahlil: O'zbekiston tovar bozori.

Yuqoridagi tahlil asosida O'zbekiston tovar bozorining SWOT-tahlilini quyidagicha shakllantiramiz (9-jadvalga qarang).

Tadqiqot jarayonida asosan quyidagi muammolar aniqlandi. Tovar bozorida mavjud tarkibiy muammolarning beshta asosiy yo'nalishi belgilanishi mumkin.

Birinchi muammo — eksport tarkibidagi xom ashyo ustunligi. 2024-yilda ham eksportning 27.9% ini oltin tashkil etib, bozor tebranishlariga katta sezgirlik yaratmoqda. Oltin narxi pasayganda yoki markaziy bank zahiralarini tashqi bozorda realizatsiya qilishni cheklaganda, eksport ko'rsatkichlari dramatik tarzda pasayishi mumkin (Abdullayev I.M., 2023).

Ikkinchi muammo — logistika xarajatlarining yuqoriligi. O'zbekiston ikki qit'a o'rtasida joylashgan "ikki baravar quruqlikda qolgan" (double landlocked) davlat bo'lib, dengizga chiqish yo'qidir. Eksport tashish xarajatlari dengiz portlariga chiqish imkoniga ega bo'lgan qo'shni davlatlarga nisbatan 15–25% yuqori bo'ladi (Limão N., Venables A.J., 2001). Bu holat tovar raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Uchinchi muammo — mahalliy ishlab chiqarishning past darajasi. Import qoplash koeffitsienti (eksport/import × 100%) 2024-yilda 69.0% ni tashkil etib, savdo taqchilligining chuqurligi qolyotganini ko'rsatadi. Mahalliy tovar ishlab chiqarish texnologik yangilanishsiz import bilan raqobatlasha olmaydi.

To'rtinchi muammo — moliyaviy infratuzilmaning cheklanganligi. Kichik va o'rta biznes (KO'B) uchun kredit olish qiyinligi va foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi (2024-yilda Markaziy bank kalit stavkasi 14%) savdo faoliyatini moliyalashtirishni cheklaydi.

Beshinchi muammo — standartlashtirish va sertifikatlash. Xalqaro standartlardan (ISO, Halal, Global GAP) farqli mahalliy standartlar eksportning muayyan bozorlarga kirishini qiyinlashtiradi, ayniqsa Yevropa va GCC mamlakatlariga.

Yuqoridagi muammoli jihatlar bilan birga bir qator muhim ijobiy tendensiyalar ham kuzatilmoqda.

Birinchidan, ishlab chiqarish sanoati eksportining o'sishi barqaror tendensiya bo'lib qolmoqda: 2024-yilda sanoat mahsulotlari eksporti (oltin va energiya bundan mustasno) umumiy eksportning 38.4% ini tashkil etdi.

Ikkinchidan, Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li loyihasi (taxminiy qiymati 4.7 mlrd. dollar) amalga oshsa, O'zbekistonning tranzit iqtisodiy imkoniyatlari keskin oshadi. Bundan tashqari, Trans-Kaspiy xalqaro tranzit yo'nalishi ham tovar harakatini tezlashtirish uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda (Transport vazirligi, 2024).

Uchinchidan, Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi (Yeall) bilan erkin savdo maslahatlari olib borilishi O'zbekistonning katta mintaqaviy bozorga integratsiyasini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Hozircha O'zbekiston Yeall ga to'liq a'zo bo'lmasa-da, kuzatuvchi status va ikki tomonlama erkin savdo shartnomalari orqali faol aloqalar saqlanmoqda.

To'rtinchidan, sanoat zonalar va Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ)ning rivojlanishi. Navoiy AIEZ, Angren TEZ va boshqa maxsus iqtisodiy hududlarda ishlab chiqarish hajmi 2020–2024 yillarda yiliga o'rtacha 18% o'sdi.

Olib borilgan tadqiqotlar doirasida va tahliliy natijalar asosida O'zbekiston Respublikasi tovar bozorida 2025–2030 yillar uchun prognoz jarayonlari ishlab chiqildi. Mavjud tendensiyalar va hukumat siyosatlarini hisobga olgan holda quyidagi bashorat ko'rsatkichlari taklif etiladi:

1. 2030 yilga qadar YaIM 200 mlrd. dollarga yetishi uchun yillik o'rtacha 9.2% real o'sish talab etiladi — bu jadal, ammo erishib bo'ladigan maqsad;
2. Tashqi savdo aylanmasi 2030 yilga qadar 100–110 mlrd. dollarga yetishi mumkin;
3. Onlayn savdo 2030 yilga qadar jami savdoning 10–12% ini tashkil etishi kutilmoqda;
4. Eksport tarkibida qayta ishlangan mahsulotlar ulushi 2030 yilga qadar 55% ga yetishi rejalashtirilgan.

### Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston Respublikasi tovar bozorining 2015–2024 yillardagi holati bo'yicha quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga kelindi: Birinchidan, O'zbekiston tovar bozori o'rganilayotgan davrda jadal o'sish tendensiyasini namoyish etdi. Tashqi savdo aylanmasining 177% ga, chakana savdoning esa qariyb 12 baravarga oshishi iqtisodiyotning dinamik rivojlanayotganidan va COVID-19 pandemiyasi kabi inqirozlarga nisbatan moslashuvchanligidan dalolat beradi. Ikkinchidan, eksport va import tarkibida tarkibiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Paxta tolasi kabi xom ashyo eksporti kamayib, qayta ishlangan va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushi ortayotgani ijobiy holat bo'lsa-da, oltinning eksportdagi 27.9% lik ulushi iqtisodiyot uchun tizimiy risk bo'lib qolmoqda. Importda mashina va uskunalarning yetakchiligi (34.6%) sanoatning modernizatsiya qilinayotganini ko'rsatadi. Uchinchidan, tovar bozorining eng yirik muammolaridan biri bu – hududiy disparitet. Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston o'rtasida aholi jon boshiga savdo hajmida 6.3 baravarlik tafovut mavjudligi mintaqaviy iqtisodiy siyosatni qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Yuqoridagi xulosalarga tayangan holda, tovar bozorini yanada barqaror rivojlantirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

eksportni diversifikatsiya qilish. Oltin eksportiga tobe'likni kamaytirish maqsadida qayta ishlangan mahsulotlar eksportiga soliq imtiyozlari berish va IT hamda intellektual mulk eksportini joriy etish;

logistika infratuzilmasini optimallashtirish. Dengizga chiqish imkoniyati yo'qligi sababli yuqori bo'lgan logistika xarajatlarini pasaytirish uchun Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li qurilishini tezlashtirish va barcha chegaraviy nuqtalarda "Dry port" (quruqlik porti) tizimini joriy etish;

hududiy tengsizlikni yumshatish. Iqtisodiy ko'rsatkichlari past bo'lgan viloyatlar (Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Jizzax) uchun maxsus tovar bozorini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda uzoq hududlarda raqamli savdoni rivojlantirish uchun internet qamrovini 100% ga yetkazish;

import o'rnini bosish. Mahalliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish uchun yig'ish (assembly) sanoatidan to'liq ishlab chiqarish davriga o'tishni tizimli rejalashtirish.

### Adabiyotlar /Литература/References:

Abdullayev, I.M. (2023) 'Oltinning O'zbekiston eksportidagi roli va valyuta riskini boshqarish', *O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi*, 3(48), pp. 22–31.

Asian Development Bank (2023) *Central Asia Regional Economic Cooperation: Trade and Transport Facilitation Report 2023*. Manila: ADB.

ITC Trade Map (2024) *Uzbekistan Trade Statistics*. Geneva: International Trade Centre. Available at: <https://www.trademap.org>

Karimov, B.A. (2022) 'O'zbekiston tovar bozorining raqobatbardoshlik omillari', *Iqtisodiyot va tadbirkorlik*, 4(82), pp. 78–86.

Kotler, P. and Armstrong, G. (2019) *Principles of marketing*. 18th edn. Hoboken: Pearson Education.

Krugman, P.R., Obstfeld, M. and Melitz, M.J. (2022) *International economics: Theory and policy*. 12th edn. Harlow: Pearson Education.

Limão, N. and Venables, A.J. (2001) 'Infrastructure, geographical disadvantage, transport costs, and trade', *World Bank Economic Review*, 15(3), pp. 451–479. doi: 10.1093/wber/15.3.451.

Mankiw, N.G. (2021) *Principles of economics*. 9th edn. Mason: South-Western Cengage Learning.

O'zbekiston Raqamli iqtisodiyot agentligi (2024) *E-commerce rivojlanish hisoboti 2024*. Toshkent: RIA. Available at: <https://digital.gov.uz>

- O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi (2024) Tashqi savdo statistikasi 2015–2024. Toshkent: DBQ. Available at: <https://customs.uz>
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024) Pul-kredit siyosati hisoboti 2024. Toshkent: O'zR Markaziy banki. Available at: <https://cbu.uz>
- O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (2025a) Tashqi savdo aylanmasi 2024 yil yanvar–dekabr: press reliz. Toshkent: Milliy statistika qo'mitasi. Available at: <https://stat.uz>
- O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (2025b) Yalpi ichki mahsulot: 2024 yil yanvar–dekabr: press-reliz. Toshkent: Milliy statistika qo'mitasi. Available at: <https://stat.uz/img/press-relizlar/analitika-vvp>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2017a) 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida: PF-4947-son Farmon, 7 fevral. Available at: <https://lex.uz/docs/3107042>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2017b) Valyuta siyosatini liberallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: PQ-3272-son Qaror, 2 sentyabr. Available at: <https://lex.uz/docs/3337898>
- O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi (2024) Trans-Kaspiy xalqaro transport yo'nalishi bo'yicha hisobot. Toshkent: Transport vazirligi. Available at: <https://mintrans.uz>
- Pardayev, S. (2024) 'Assessing the competitiveness of logistics and trade in Uzbekistan (in the Logistics Performance Index) (LPI)', *American Journal of Economics and Business Management*, 7(12), pp. 1656–1662.
- Pardayev, S.X. (2025) 'The role and significance of marketing research in the effective utilization of material resources', *The Role of Green Technologies and Sustainable Development in Advancing Regional Economies*, 1.
- SWOT tahlil yuqoridagi tahliliy asoslar natijasida muallif tomonidan umumlashtirildi.
- Toshmatov, Sh.R. (2024) 'Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda elektron savdoning rivojlanish perspektivalari', *Raqamli iqtisodiyot*, 2, pp. 34–45.
- Umarov, X.O. and Razzaqov, A.K. (2023) 'O'zbekistonning tashqi savdo siyosatining geosiyosiy aspektlari', *O'zbekiston milliy universiteti xabarlari*, 1, pp. 112–121.
- UNCTAD (2023) *Digital Economy Report 2023: Shaping an Enabling Environment for Cross-border E-Commerce*. Geneva: United Nations.
- World Bank (2021) *Uzbekistan COVID-19 Crisis and Recovery: Impact Assessment*. Washington, D.C.: World Bank. Available at: <https://openknowledge.worldbank.org>
- World Bank (2023) *Uzbekistan Economic Update: Navigating a Complex Landscape*. Washington, D.C.: World Bank Group. Available at: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan>
- World Economic Forum (2023) *The Global Competitiveness Report 2023*. Geneva: WEF.
- Xolmurodovich, P.S. (2024) 'American Journal of Economics and Business Management', *American Journal of Economics and Business Management*, 7(12), pp. 1656–1662.
- Xolmurodovich, P.S. and Qizi, B.Z.A. (2025) 'Ta'minot zanjirida oziq-ovqat resurslari harakati samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalarning o'рни va ahamiyati', *Journal of Marketing, Business and Management*, 4(1), pp. 420–430.
- Жуков, С.В. and Резникова, О.Б. (2021) *Центральная Азия в социально-экономических структурах современного мира*. Москва: ИМЭМО РАН.
- Международный валютный фонд (2024) *World Economic Outlook: Navigating Global Divergences*. Washington, D.C.: IMF.